



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



AYOLLAR VA ILM-FAN: TARIXIY CHEKLOVLAR VA ULARNI YENGIB O‘TGAN OLIMALAR

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ayollarning ta’lim olishi hamda ularning ilmiy faoliyatları uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratib berish muhim va dolzarbdir. Hozirgi davrda bu masalaga e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, avvalroq ayollarning ta’lim olishi hamda ilmiy faoliyat yuritishlari qiyin kechganiga tarix guvoh. Ammo, aytish mumkinki, bunday to’siqlarga qaramay, ko‘plab ayollar ilm-fanda yuqori natijalarga erishgan.

Kalit so‘zlar: ayol-qizlar, ta’lim, ilm-fan, tarixiy cheklov, jamiyat, kashfiyot, gender tengligi.

Hozirgi kunda ayol-qizlar ta’limi siyosat darajasiga ko‘tarilib, davlat harakat strategiyalaridan ham bosh o‘rirlarni egallamoqda. Ilm olish erkag-u ayolga birdek farz ekanligi muqaddas manbalarimizdan ham ma’lumdir. Qolaversa, ayol – har bir insonning ilk madrasasidir, ayol o‘qisa butun jamiyat o‘qiydi, barkamol kelajak bunyod bo‘ladi. Biroq, tarixga nazar solsak, ayollarning ilm olish yo‘lida bir necha qiyinchiliklarga duch kelgani, ko‘p asrlar davomida ayol va qizlarda ta’lim olish huquqi mavjud bo‘lmagani, ularning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun ko‘plab cheklovlar qo‘yilganiga guvoh bo‘lamiz. Turli o‘rganishlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bunday cheklovlargacha quyidagi omillar sabab bo‘lgan:

- a) Ta’limga kirish imkoniyati cheklanganligi – ko‘plab jamiyatlarda ayollarning rasmiy ta’lim olishi qiyin bo‘lgan, ya’ni erkaklarga ta’lim olish huquqiga ega bo‘lgan.
- b) Jinsiy stereotiplar – ayollar “uy bekasi” bo‘lishi bilan cheklanishi lozim degan qarash ilm-fan bilan shug‘ullanish yo‘llarini to‘sib qo‘yan.
- c) Huquqiy cheklovlar – ayrim davrlarda ayollar savodli bo‘lsa-da, ayollarga universitetga kirish, ilmiy unvon olish yoki kashfiyotlar qilish imkoniyati berilmagan.
- d) Diniy va madaniy ta’sirlar – Ba’zi jamiyatlarda ayollarning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi noto‘g‘ri deb ishonilgan yoki ma’lum doiralargagina ruxsat berilgan.
- e) Moliyaviy va oilaviy cheklovlar – ko‘p ayol-qizlar o‘z ilmiy faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki oilada ular ayol bo‘lganliklari bois mablag‘ faqat oilaning erkak a’zosiga ajratilgan.

Ta’kidlash lozimki, mana shunday cheklovlargacha qaramay, ilm olish yo‘lida kurashgan, bu yo‘ldagi qiyinchiliklarga e’tibor bermay, ilm olishga erishgan hamda shuning o‘zi bilan cheklanibgina qolmay, ilm-fanga o‘z hissasini qo‘shgan olma ayollar ham talaygina. Quyida ulardan bir nechtasini keltirib o‘tamiz.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



1. Fatima al-Fihriy (IX asr) – dunyodagi eng qadimgi universitet asoschisi. Fatima al-Fihriy 859-yilda Marokashning Fes shahrida dunyodagi eng qadimgi universitet – Al-Qaraviyiun universitetini tashkil qilgan. Bu universitet nafaqat Islom olamida, balki butun dunyoda katta obro‘ qozonib, hozirgacha faoliyat yuritmoqda. Bu universitetda islomiy fanlardan tashqari, falsafa, matematika, astronomiya kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Shuningdek, mazkur universitet UNESCO Ginnes rekordlar kitobi tomonidan dunyodagi eng qadimiy doimiy ishlayotgan universitet sifatida tan olingan.
2. Mariya Sklodovskaya Kyuri (1867–1934) – ikki bor Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan olima. Ayollar uchun oliy ta’lim olish cheklanganligi sababli, Mariya Parijdagi Sorbonna universitetida ta’lim oladi. Polshalik fizik va kimyogar Mariya Kyuri radioaktivlikni kashf etgan va bu sohada katta ilmiy natijalarga erishgan.
3. Hypatia (IV-V asr) – Yunonistonning yetuk matematik va astronomi. Iskandariyada yashagan Hypatia qadimgi dunyoda mashhur matematik, astronom va faylasuf bo‘lgan. Uning fani rivojlantirishdagi hissasi juda katta bo‘lsa-da, diniy va siyosiy mojarolar tufayli o‘ldirilgan.
4. Maryam al-Ijliyya (X asr) – Arab dunyosidagi birinchi mashhur ayol muhandis. Uning ixtisosligi astronomiya va mexanika bo‘lib, asosan astrolab yasash bilan mashhur bo‘lgan. Uning ishlari O‘rta asr astronomiyasi va navigatsiyasida muhim rol o‘ynagan. U astrolabe yasashda kata mahoratga ega bo‘lgani bois, o‘z davrida “Al-astrolabiy” nomi bilan tanilgan.
5. Rosalin Franklin (1920–1958) – DNK tuzilishini aniqlagan olima. U fizik va biokimyogar bo‘lib, DNK tuzilishini rentgen diffraksiyasi yordamida aniqlagan. Biroq, uning ishlari uzoq vaqt davomida e’tibordan chetda qolgan va erkak hamkasblari yutuqlari uchun Nobel mukofoti olgan. Rosalind Franklin ilm-fan tarixida katta iz qoldirgan va ayollarning ilmiy izlanishlarda qanchalik muhim rol o‘ynashini ko‘rsatgan buyuk olima edi.
6. Dorothy Crowfoot Hodgkin (1910–1994) – Kristallografiya bo‘yicha Nobel laureati. U biokimyoviy moddalar tuzilishini aniqlash sohasida ishlagan va 1964-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Ko‘rinib turibdiki, ayollar ilm-fan borasida erkaklar bilan bir qatorda ildam va qobiliyatlidir. Hozirgi kunda ayollar ta’limi va ularning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Shunday bo‘lsa-da, bu masala o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilishi lozim. Ayollar uchun ilmiy ta’limga kengroq yo‘l ochish, ilm-fan sohasida gender tengligini ta’minlash, ayol olimalarining ishlarini kengroq targ‘ib qilish va e’tirof etish kabilar shular jumlasidandir.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO: World's Oldest University – Al-Qarawiyyin.
2. Britannica Encyclopedia: Marie Curie.
3. George Saliba, Islamic Science and the Making of the European Renaissance.

